


ANDIJON VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI



*(2021- yil yanvar-oktabr oylari
uchun dastlabki ma'lumot)*

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **2 432,3** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilga nisbatan **169,1** mln. AQSh dollariga yoki **7,5** % ga o'sdi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI

(yanvar - oktabr, mln. AQSh dollari)

		2020- yil	2021- yil	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
Tashqi savdo aylanmasi		2 263,2	2 432,3	107,5	x
Eksport		473,7	713,6	150,6	100,0
	tovarlar	470,7	707,8	150,4	99,2
	xizmatlar	3,0	5,8	194,0	0,8
Import		1 789,5	1 718,7	96,0	100,0
	tovarlar	1 690,0	1 629,4	96,4	94,8
	xizmatlar	99,5	89,3	89,7	5,2
	Saldo	-1 315,8	-1 005,1	x	x




Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSAda eksport hajmi **713,6** mln. AQSh dollariga (**50,6** % ga o'sdi) va import hajmi **1 718,7** mln. AQSh dollariga (**4,0** % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – **1 005,1** mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

ANDIJON VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2021- yil yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari)



Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalaridagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi va Turkmaniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSAda yuqori ulush Koreya Respublikasi, XXR, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, AQSh, Germaniya, Ukraina va Hindiston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



HAMKOR-DAVLATLAR ICHIDA 3 TA YIRIK FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR

(2021- yil yanvar-oktabr)



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan uchta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Qozog'iston (**271,5** mln. AQSh dollari), Qirg'iz Respublikasi (**209,5** mln. AQSh dollari), Ukraina (**8,0** mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 17 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

Andijon viloyati jahonning **68** ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Koreya Respublikasi (**41,6** %), Xitoy Xalq Respublikasida (**14,7** %), Qozog'istonda (**11,9** %), Qirg'iz Respublikasi (**10,8** %) va Rossiya Federatsiyasida (**7,9** %) qayd etilgan.



ANDIJON VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari)



	Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
	Koreya Respublikasi	1 073,9	1 138,8	1 011,5
	<i>Eksport</i>	0,8	0,5	0,6
	<i>Import</i>	1 073,1	1 138,3	1 010,9
	Xitoy Xalq Respublikasi	246,2	259,6	357,5
	<i>Eksport</i>	106,6	47,7	77,0
	<i>Import</i>	139,6	211,9	280,5
	Qozog'iston	106,6	138,9	288,9
	<i>Eksport</i>	90,5	130,1	280,2
	<i>Import</i>	16,1	8,8	8,7
	Qirg'iz Respublikasi	187,0	221,4	262,5
	<i>Eksport</i>	161,4	196,7	236,0
	<i>Import</i>	25,6	24,7	26,5
	Rossiya Federatsiyasi	188,4	222,8	191,3
	<i>Eksport</i>	59,3	57,9	62,6
	<i>Import</i>	129,1	164,9	128,7
	Turkiya	42,3	53,4	73,5
	<i>Eksport</i>	12,7	8,5	20,4
	<i>Import</i>	29,6	44,9	53,1
	AQSh	45,8	16,2	55,2
	<i>Eksport</i>	0,4	0,4	0,3
	<i>Import</i>	45,4	15,8	54,9
	Germaniya	15,8	15,3	17,9
	<i>Eksport</i>	0,5	0,2	0,9
	<i>Import</i>	15,3	15,1	17,0
	Ukraina	8,8	11,3	13,8
	<i>Eksport</i>	5,9	9,4	10,9
	<i>Import</i>	2,9	1,9	2,9
	Hindiston	8,3	11,0	12,6
	<i>Eksport</i>	0,0	0,2	0,2
	<i>Import</i>	8,3	10,8	12,4

ANDIJON VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari)



	Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
	Italiya	11,4	9,5	12,4
	<i>Eksport</i>	0,0	0,6	2,2
	<i>Import</i>	11,4	8,9	10,2
	Chexiya	10,2	16,8	12,2
	<i>Eksport</i>	0,0	0,1	0,0
	<i>Import</i>	10,2	16,7	12,2
	Braziliya	9,8	15,1	12,0
	<i>Eksport</i>	0,1	-	0,0
	<i>Import</i>	9,7	15,1	12,0
	Tailand	5,1	62,8	11,7
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	5,1	62,8	11,7
	Polsha	6,0	7,1	10,1
	<i>Eksport</i>	0,2	0,4	1,1
	<i>Import</i>	5,8	6,7	9,0
	Eron Islom Respublikasi	6,0	3,7	8,2
	<i>Eksport</i>	2,8	1,2	0,5
	<i>Import</i>	3,2	2,5	7,7
	Shveytsariya	17,6	0,8	6,3
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	17,6	0,8	6,3
	Avstriya	5,7	3,4	5,9
	<i>Eksport</i>	-	-	0,2
	<i>Import</i>	5,7	3,4	5,7
	Slovakiya	2,4	5,2	5,7
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	2,4	5,2	5,7
	Meksika	4,8	5,5	5,0
	<i>Eksport</i>	-	0,0	0,0
	<i>Import</i>	4,8	5,5	5,0



ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-oktabr 2021- yil) *



	Mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Andijon viloyati	2 432,3	107,5
Andijon sh.	281,5	84,5
Xonobod sh. tumanlar :	83,9	149,3
Oltinko'l	35,2	113,6
Andijon	59,7	99,0
Baliqchi	7,1	97,6
Bo'ston	19,9	106,2
Buloqboshi	13,6	120,9
Jalaquduq	39,0	155,7
Izboskan	16,4	91,6
Ulug'nor	21,4	149,6
Qo'rg'ontepa	45,0	99,9
Asaka	1 620,4	109,7
Marhamat	22,2	120,1
Shahrixon	56,5	165,0
Paxtaobod	14,0	72,3
Xo'jabod	93,8	101,4

**Eng yuqori hajm,
mln. AQSh dollari**

Asaka – 1 620,4

Andijon sh. – 281,5

Xo'jabod – 93,8

**Eng quyi hajm,
mln. AQSh dollari**

Paxtaobod – 14,0

Buloqboshi – 13,6

Baliqchi – 7,1

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka **66,6 %** ulush bilan **1 620,4** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Baliqchi **0,3 %** ulush bilan **7,1** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.




Andijon viloyati tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi MDH davlatlariga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich so'nggi yillarda biroz o'zgardi.

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlari natijasida, 2021-yilning yanvar-oktabr oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **31,8 %** ni tashkil etib, 2020- yilga nisbatan ushbu ko'rsatkich **4,8 %** ga o'sgan.

ANDIJON VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida 2020- yilga nisbatan **0,3 %** ga ko'paydi va jami TSA'dagi ulushi **68,2 %** ni tashkil etdi.



ANDIJON VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari)



1992-yil 4- yanvarda O'zbekiston Respublikasi MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi)ga a'zo bo'ldi. Andijon viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2021- yil yanvar-oktabr holatiga **774,0** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport – **601,2** mln. AQSh dollariga yetgan bo'lsa, import – **172,8** mln. AQSh dollari qiymatida qayd etildi.

Andijon viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Qozog'iston (**37,3 %**), Qirg'iz Respublikasi (**33,9 %**), Rossiya Federatsiyasi (**24,7 %**), Ukraina (**1,8 %**) davlatlari bilan qayd etildi.



ANDIJON VILOYATI EKSPORTI


(yanvar-oktabr 2021- yil)



Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning eksportyorlari soni **408** tani tashkil etib, ular tomonidan **713,6** mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan **50,6** % ga o'sdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2021- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi **99,2** % ni tashkil etib, ular mashinalar va transport asbob – uskunolari (**40,7** %), turli xil tayyor mahsulotlar (**27,3** %), sanoat tovarlari (**25,2** %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**4,5** %), nooziq-ovqat xomashyo (**1,3** %) hamda kimyoviy vositalar (**0,2** %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



ANDIJON VILOYATI XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI *(yanvar-oktabr, yillar kesimida)*



XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan % da	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Jami eksport	473,7	713,6	102,7	150,6	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	52,0	32,3	56,3	62,1	11,0	4,5
Ichimliklar va tamaki	0,3	0,1	2,1 b.	40,2	0,1	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	25,5	9,4	82,7	37,1	5,4	1,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,2	66,2	45,9 b.	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,2	0,0	33,7	0,2	0,1	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	2,5	1,4	2,2 b.	56,8	0,5	0,2
Sanoat tovarlari	99,8	179,5	68,7	179,8	21,1	25,2
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	145,8	290,2	149,2	199,0	30,7	40,7
Turli xil tayyor buyumlar	144,6	194,7	161,2	134,6	30,5	27,3
Xizmatlar	3,0	5,8	88,8	194,0	0,6	0,8



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-oktabr)



XSST bo'limi nomi	Ming. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	28 872,2	58,7
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1 321,6	132,6
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	813,2	2,4 b.
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	590,8	63,2
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	119,5	40,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	7 145,1	106,4
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	1 334,7	185,7
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	904,3	5,0
56-bo'limga kiritilgandan tashqari o'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaxo toshlardan tashqari)	44,4	182,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	178,2	45,9 b.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
Qayta ishlangan hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,3	29,3
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	0,3	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	477,2	113,4
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	315,7	115,5
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	256,4	32,2
Noorganik kimyo moddalari	167,1	134,7

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-oktabr)





XSST bo'limi nomi	Ming. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	164 645,6	193,1
Metalldan tayyorlangan buyumlar	6 634,4	62,3
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	3 331,4	124,2
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar	2 059,5	6,6 b.
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar	275 601,1	2,1 b.
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	11 893,6	81,0
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	1 560,7	176,9
Elektr alokasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari uskunolari	498,1	46,4 b.
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	174 063,8	141,7
Poyabzal	12 857,7	91,1
Har xil tayyor buyumlar	4 101,9	66,2
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash buyumlar	2 265,5	3,4 b.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi ko'paydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2019-yilning yanvar-oktabridagi **71,2 %** dan 2021-yilning yanvar-oktabrida **84,3 %** ga yetdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi **28,8 %** dan **15,7 %** ga kamaydi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR-NING ULUSHI
(2021- yil yanvar-oktabr, % da)

2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Qozog'iston (eksport umumiy hajmining **39,3 %**), Qirg'iz Respublikasi (**33,1 %**), Xitoy Xalq Respublikasi (**10,8 %**), Rossiya Federatsiyasi (**8,8 %**), Turkiya (**2,9**), Ukraina (**1,5 %**) va Ozarbayjon (**0,5 %**) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi **96,9 %** ni tashkil etmoqda.



ANDIJON VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-oktabr, yillar kesimida)*



Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Qozog'iston	130,1	280,2	143,7	2,2 b.	2	1
Qirg'iz Respublikasi	196,7	235,9	121,9	120,0	1	2
Xitoy Xalq Respublikasi	47,6	76,9	44,7	161,5	4	3
Rossiya Federatsiyasi	57,9	62,6	97,5	108,2	3	4
Turkiya	8,5	20,4	66,5	2,4 b.	6	5
Ukraina	9,4	10,9	159,4	116,1	5	6
Ozarbajjon	7,3	3,9	189,0	53,1	7	7
Moldova Respublikasi	2,2	3,7	88,9	168,7	8	8
Afg'oniston	2,1	2,8	54,0	134,6	9	9
Italiya	0,6	2,2	11,6 b.	3,7 b.	15	10
Pokiston	0,0	2,1	0,7	283,1 b.	38	11
Belarus Respublikasi	1,7	1,5	70,9	88,8	11	12
Tojikiston	2,0	1,5	84,4	71,5	10	13
Polsha	0,4	1,1	191,5	2,7 b.	21	14
Turkmaniston	0,0	0,9	39,1	27,1 b.	34	15
Germaniya	0,1	0,9	31,3	6,1 b.	27	16
Latviya	0,7	0,7	57,1	108,2	13	17
Koreya Respublikasi	0,5	0,6	59,9	120,2	18	18
Eron Islom Respublikasi	1,2	0,5	43,1	43,0	12	19
Litva	0,6	0,5	4,6 b.	74,3	14	20

ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2021- yil yanvar-oktabr)



	Mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Andijon viloyati	713,6	150,6
Andijon sh.	79,8	132,6
Xonobod sh.	54,2	2,8 b.
tumanlar :		
Oltinko'l	24,1	106,0
Andijon	22,5	73,3
Baliqchi	3,6	67,1
Bo'ston	18,0	119,0
Buloqboshi	7,0	97,0
Jalaquduq	32,1	161,5
Izboskan	12,8	87,1
Ulug'nor	11,6	185,5
Qo'rg'ontepa	28,0	123,5
Asaka	306,6	180,0
Marhamat	13,0	112,5
Shahrixon	27,9	152,6
Paxtaobod	8,0	65,2
Xo'jaobod	62,8	172,5

Eng yuqori hajm,
mln. AQSh dollari

Asaka – 306,6

Andijon sh. – 79,8

Xo'jaobod – 62,8

Eng quyi hajm,
mln. AQSh dollari

Paxtaobod – 8,0

Buloqboshi – 7,0

Baliqchi – 3,6

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani **43,0** % ulush bilan **306,6** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat eksporti tarkibida eng quyi ulushni Baliqchi tumani **0,5** % ulush bilan **3,6** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Viloyatdagi meva-sabzavot sektori shahar va tumanlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim segment hisoblanadi. Shuning uchun, bu sohada meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun barcha choralar ko'rilmoqda, bu esa o'z natijalarini bermoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **31,3** mln. AQSh dollari qiymatli **61,0** ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2020- yilning mos davriga nisbatan **19,1** mln. AQSh dollarida kamayish kuzatilib, **37,9** % ga pasaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, **13,0** mln. AQSh dollariga teng **36,4** ming tonna sabzavot, shuningdek, **15,9** mln. AQSh dollari qiymatidagi **23,0** ming tonna mevalar eksport qilindi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2021- yil yanvar-oktabr)



Meva va rezavorlar

6 825,0 -
tonna
7 107,2-
ming
AQSh
dollar



Uzum

5 349,3-
tonna
5 113,4-
ming
AQSh
dollar



Qovun va tarvuz

10 866,0-
tonna
3 631,5-
ming
AQSh
dollar



Yer yong'oq

865,0 -
tonna
1 179,8 -
ming AQSh
dollar



Sabzavotlar

36 448,9 -
tonna
12 978,2 -
ming
AQSh
dollar



Qalampir

651,1 -
tonna
1 264,8 -
ming
AQSh
dollar

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirg'iz Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya, Latviya, Turkiya, Turkmaniston hamda Ukraina davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi **4,4** % ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2021- yil yanvar-oktabr)



Davlatlar	tonna	ming AQSh dollari	ulushi, % da *
 Qirg'iz Respublikasi	42 412,3	19 460,3	67,4
 Rossiya Federatsiyasi	14 368,1	7 835,4	27,1
 Germaniya	218,0	529,5	1,8
 Latviya	1 017,9	336,7	1,2
 Turkiya	80,5	154,1	0,5
 Turkmaniston	790,7	110,2	0,4
 Ukraina	189,0	104,0	0,4
 Avstriya	43,8	83,4	0,3
 Qozog'iston	99,6	54,0	0,2
 Armaniston	44,0	47,9	0,2
 Moldova Respublikasi	100,5	43,1	0,1
 Belarus Respublikasi	90,8	37,3	0,1
 Ozarbayjon	22,0	22,5	0,1
 Mangoliya	15,5	18,7	0,1
 Boshqa davlatlar	61,0	35,1	0,1

* qiymat ifodasidan

Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qirg'iz Respublikasiga to'g'ri keladi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **(67,4 %)**i), bu Rossiya Federatsiyasiga eksport hajmidan **2,5** baravar ko'pdir.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xom-ashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda **340,5** mln. AQSh dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **47,7** % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan **60,9** % ga o'sdi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (**51,1** %), paxtadan yigirilgan ip (**29,7** %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan **279** turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning **25** ta davlatiga eksport qilindi.

TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, ming. AQSh dollari)



		2019-yil	2020-yil	2021-yil
Tovarlar nomi		207 488,3	211 546,4	340 451,9
	Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	66 894,3	121 538,2	173 832,7
	Paxtadan yigirilgan ip	121 129,4	55 231,9	101 040,4
	Naqshli mato	2 818,2	16 765,6	34 433,3
	Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	1 264,1	4 657,5	11 264,3
	Paxta mahsulotlari	4 062,1	1 926,1	4 506,4
	Paxtadan gazlamalar	778,7	3 731,7	6 637,6
	Ipak va ipak mahsulotlari	10 254,0	6 810,8	4 700,4
	Gilamlar	1,3	6,8	2 255,2
	Boshqalar	286,2	877,9	1 781,7



DAVLATLAR KESIMIDA TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari)



		2019- yil	2020- yil	2021- yil
	Qirg'iz Respublikasi	44,7	108,6	174,1
	Xitoy Xalq Respublikasi	105,6	47,6	76,7
	Rossiya Federatsiyasi	34,2	35,6	42,6
	Turkiya	6,2	7,2	17,9
	Qozog'iston	6,9	2,8	8,9
	Ukraina	2,1	2,5	5,9
	Moldova Respublikasi	2,5	2,2	3,7
	Ozarbayjon	0,7	0,6	2,3
	Italiya	0,1	0,6	2,2
	Pokiston	0,0	0,0	1,9
	Polsha	0,0	0,4	1,1
	Belarus Respublikasi	0,8	0,5	1,0
	Eron Islom Respublikasi	2,3	1,1	0,5
	Ruminiya	0,2	0,2	0,4
	Vetnam	0,1	0,5	0,4
	Boshqa davlatlar	1,1	1,1	0,9

To'qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Qirg'iz Respublikasi (**174,1** mln. AQSh dollari – **51,1** %), Xitoy Xalq Respublikasi (**76,7** mln. AQSh dollari – **22,5** %), Rossiya Federatsiyasi (**42,6** mln. AQSh dollari – **12,5** %) va Turkiya (**17,9** mln. AQSh dollari – **5,3** %) davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.

XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(2021- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)



Moliyaviy xizmatlar

31,5 %



Transport xizmatlari

31,1 %



Ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish boshqa joyda tafsiflanmagan

24,9 %



Safarlar (turizm)

12,5 %



Xizmatlar eksporti hajmi **5,8** mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining **0,8** % ini tashkil etib, 2020- yilga nisbatan **94,0** % ga o'sganligi kuzatildi. Moliyaviy xizmatlar (**31,5** %), transport xizmatlari (**31,1** %), ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish boshqa joyda tafsiflanmagan (**24,9** %) hamda safarlar (turizm) (**12,5** %) hissasiga to'g'ri kelgan.




ANDIJON VILOYATINING IMPORTI (2021- yil yanvar-oktabr)



2021 - yilning yanvar-oktabr oylarida import hajmi **1 718,7** mln. AQSh dollarini va 2020- yilga nisbatan **96,0** % ga yetdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob - uskunalari (**65,3** %), sanoat tovarlari (**17,1** %), turli xil tayyor buyumlar (**5,5**%) hamda xizmatlar (**5,2** %) hisobiga to'g'ri keldi.

XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **60,6** mln. AQSh dollariga kamaydi va **1 629,4** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **89,3** mln. AQSh dollariga yetdi.



ANDIJON VILOYATI XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (yanvar-oktabr, yillar kesimida)



XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Jami import	1 789,5	1 718,7	111,6	96,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	17,6	17,9	105,9	101,6	1,0	1,0
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	70,6	21,5	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	24,1	16,1	169,6	66,9	1,3	0,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	10,8	8,7	110,4	80,8	0,6	0,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	2,0	1,5	194,8	76,6	0,1	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	83,5	76,0	95,8	91,0	4,7	4,4
Sanoat tovarlari	333,1	293,8	108,5	88,2	18,6	17,1
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	1 118,2	1 121,8	117,9	100,3	62,5	65,3
Turli xil tayyor buyumlar	100,7	93,6	106,0	92,9	5,6	5,5
Xizmatlar	99,5	89,3	80,1	89,7	5,6	5,2

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-oktabr)



XSST bo'limi nomi	Ming. AQSh dollari	2020-yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Tirik hayvonlar	10 009,7	116,7
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	2 199,8	74,0
Sabzavotlar va mevalar	1 976,3	2,2 b.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1 401,8	88,7
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	6,2	21,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	5 166,2	34,4
Tabiiy kauchuk (sun'iy va regeneratsiya qilingan rezina ham)	3 679,9	115,1
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	2 367,8	84,4
56-bo'limga kiritilgandan tashqari o'g'itlar uchun xom- ashyo va mineral xom-ashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	1 983,8	192,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Ko'mir, koks va briketlar	6 476,5	79,8
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash metallar	2 206,6	84,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	1 467,4	74,1
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan	49,9	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	34 364,4	108,3
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	12 317,4	68,3
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	11 931,7	96,4
Organik kimyo moddalari	5 798,0	71,6

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-oktabr)





XSST bo'limi nomi	Ming. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	95 952,9	77,7
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	71 280,6	90,6
Metaldan tayyorlangan buyumlar	63 512,9	95,3
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	30 759,6	99,5
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar	753 344,0	91,8
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	132 298,6	132,6
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	131 060,5	124,3
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	47 187,3	111,6
Turli xil tayyor buyumlar		
Har xil tayyor buyumlar	31 818,7	88,0
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	30 995,8	129,1
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	25 590,8	79,3
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	2 779,4	45,1

Umumiy tovarlar importi o'tgan yilga nisbatan kamayishiga qaramay ayrim tovar guruhlarida o'sish kuzatildi. Masalan, sabzavot va mevalar – **1 976,3** ming. AQSh dollari (o'sish – **2,2 b.**), 56-bo'linga kiritilgandan tashqari o'g'itlar uchun xom-ashyo va mineral xom-ashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari) – **1 983,8** ming. AQSh dollari (o'sish – **192,8 %**), maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari – **30 995,8** ming. AQSh dollari (o'sish – **129,1 %**).

MDH mamlakatlaridan import ulushi 2020- yilning shu davriga nisbatan **1,2 %** ga kamaygani kuzatildi. 2019- yilning shu davriga nisbatan **1,1 %** ga pasayish qayd etildi va ularning tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2021- yil yanvar-oktabr natijalariga ko'ra **10,1 %** ni tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakuni bo'yicha Andijon viloyatida **59** davlatdan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Koreya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, AQSh, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi va Germaniya) jami importning **91,4 %** ulushini tashkil qildi, bu **1 571,6** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR-NING ULUSHI
(2021- yil yanvar-oktabr, % da)



ANDIJON VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-oktabr, yillar kesimida)*



Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Koreya Respublikasi	1 138,3	1 010,9	106,1	88,8	1	1
Xitoy Xalq Respublikasi	211,9	280,5	151,9	132,4	2	2
Rossiya Federatsiyasi	165,0	128,7	127,8	78,0	3	3
AQSh	15,8	54,9	34,9	3,5 b.	8	4
Turkiya	45,0	53,0	152,0	118,0	5	5
Qirg'iz Respublikasi	24,7	26,5	96,4	107,5	6	6
Germaniya	15,1	17,0	98,8	112,5	9	7
Hindiston	10,9	12,5	130,7	114,7	11	8
Chexiya Respublikasi	16,7	12,2	163,8	72,7	7	9
Braziliya	15,1	12,0	155,6	79,5	10	10
Tailand	62,8	11,7	12,3 b.	18,7	4	11
Italiya	9,0	10,2	78,7	113,9	12	12
Polsha	6,7	9,0	115,1	134,1	14	13
Qozog'iston	8,8	8,7	54,8	98,4	13	14
Eron (Islom Respublikasi)	2,5	7,7	79,0	3,1 b.	19	15
Shveytsariya	0,8	6,3	4,4	8,1 b.	33	16
Slovakiya	5,2	5,7	2,2 b.	108,9	16	17
Avstriya	3,4	5,7	59,2	169,1	17	18
Meksika	5,5	5,0	113,8	90,8	15	19
Fransiya	1,2	4,8	74,5	4,2 b.	27	20

ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2021- yil yanvar-oktabr)



	Mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Andijon viloyati	1 718,7	96,0
Andijon sh.	201,6	73,9
Xonobod sh.	29,7	81,3
tumanlar:		
Oltinko'l	11,1	134,5
Andijon	37,2	125,6
Baliqchi	3,5	181,0
Bo'ston	2,0	53,7
Buloqbo'shi	6,6	163,0
Jalaquduq	6,9	133,5
Izboskan	3,6	111,7
Ulug'nor	9,8	121,8
Qo'rg'ontepa	17,0	76,1
Asaka	1 313,8	100,5
Marhamat	9,2	132,8
Shahrixon	28,6	179,1
Paxtaobod	6,0	84,7
Xo'jaobod	31,0	55,2

**Eng yuqori hajm,
mln. AQSh dollari**

Asaka – 1 313,8

Andijon sh. – 201,6

Andijon – 37,2

**Eng quyi hajm,
mln. AQSh dollari**

Izboskan – 3,6

Baliqchi – 3,5

Bo'ston – 2,0

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani **76,4 %** ulush bilan **1 313,8** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat importi tarkibida eng quyi ulushni Bo'ston tumani **0,1 %** ulush bilan **2,0** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2021- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)



2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **89,3** mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining **5,2** % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan **10,3** % ga pasaygan. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushni intellektual mulkdan foydalanganlik bilan bog'liq xizmatlar (**51,0**%), boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (**39,3** %), ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish xizmatlari (**7,0** %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (**1,4** %) hamda transport xizmatlari (**1,3** %) ga tegishli bo'ldi.



**Intellektual mulkdan
foydalanganlik bilan bog'liq
xizmatlar**

51,0

**Boshqa tadbirkorlik bilan
bog'liq xizmatlar**

39,3

**Ta'mirlash va texnik xizmat
ko'rsatish xizmatlari**

7,0

**Telekommunikatsiya,
kompyuter va axborot
xizmatlari**

1,4

Transport xizmatlari

1,3




MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI



2021- yil yanvar-oktabr oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalar hajmi **1 121,8** million AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **0,3** foizga o'sdi va importning umumiy hajmidagi ulushi **65,3** % ga yetdi.

Import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashinalar va transport asbob-uskunalar asosan qaysi davlatlardan viloyatimizga olib kirilayotganini quyidagi ma'lumotdan ko'rish mumkin.

MASHINA VA ASBOB-USKUNALAR IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2021-yil yanvar-oktabr)



Mashina va transport uskunalar importi hajmining o'sishiga, aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar (**32,6** foizga o'sgan), sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari (**24,3** foizga o'sgan), elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari (**11,6** foizga o'sgan) importi o'sishi ta'sir etgan



SANOAT TOVARLARI IMPORTI



2021- yil yanvar-oktabr oylarida import tarkibida sanoat tovarlari hajmi **293,8** million AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **11,8** % ga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **17,1** % ga yetdi.

SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2021- yil yanvar-oktabr)



Koreya Respublikasi
100,1 mln. AQSh dollari
ulushi – 34,1 %



Rossiya Federatsiyasi
70,7 mln. AQSh dollari
ulushi – 24,1 %



Xitoy Xalq Respublikasi
65,6 mln. AQSh dollari
ulushi – 22,3 %



Qirg'iz Respublikasi
19,6 mln. AQSh dollari
ulushi – 6,7 %



Chexiya
6,7 mln. AQSh dollari
ulushi – 2,3 %



Sanoat tovarlari importi asosan cho'yan va po'lat (**96,0** mln. AQSh dollari), rezina buyumlari (**71,3** mln. AQSh dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (**63,5** mln. AQSh dollari), to'qimachilik iplari, matolar, tayyor mahsulotlar (**30,8** mln. AQSh dollari), ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan buyumlar (**23,1** mln. AQSh dollari) va boshqalardan tashkil topgan.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi**
Tel.: (74) 224 82 57